

NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH AMALIYOTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11399315>

Raxmonov Jur’atbek G‘ulomqodirovich
*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishning asosiy afzalliklari, byudjet tizimlari va ularning ko‘rsatkichlari, taqsimlangan mablag‘larning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi, byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash masalalari o‘rganilgan.

Tayanch iboralar: natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish, byudjet tizimi, texnik samara, byudjet jarayoni, byudjetni ijro etish.

Mamlakatimiz mustaqilligining ortda qolgan zafarli yilnomalarida respublikamizda amalga oshirilgan kuchli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, birinchi galda, ijtimoiy munosabatlarga yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish, demokratik jamiyatni barpo etish, aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, inson manfaatlarining eng oliy qadriyatga aylanganligi naqadar to‘g‘ri ekanligi o‘z isbotini topmoqda.

Respublikamizda moliyaviy siyosatini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda moliyaviy resurslardan aholining moddiy va ma‘naviy jihatdan yuksaltirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga mablag‘larni ko‘proq ajratish, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni mustahkam holda chuqurlashtirishga e‘tibor qaratiladi. Har tomonlama ilmiy asoslangan va iqtisodiy qonunlar talabi darajasida aniq tashkil etilgan moliya, byudjet siyosatining ustuvorligi shundaki, unda jamiyat va uning zamirida yuridik hamda jismoniy shaxslarning farovonligi oshadi, makroiqtisodiy barqarorlik ta‘minlanadi.

Barchamizga ma‘lumki, davlat byudjeti iqtisodiy islohotlarni hayotga tadbir etishda hal qiluvchi omildir. Davlat byudjeti orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlashda, respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy nochor tabaqalarini aniq tarzda qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan kuchli ijtimoiy

siyosatning ta'sirchanligini va aniq tarzda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda mahalliy byudjetlar samarali ijrosining ahamiyati kattadir.

O'zbekiston demokratik davlat qurishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yar ekan, bunda davlat byudjetini shakllantirish muhim o'rin egallaydi. Respublikamizda bozor munosabatlari rivojlanib borar ekan, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ekologik vazifalarini amalga oshirish hamda ularning yuqori natijalarga erishishda markazlashgan moliyaviy mablag'larga ega bo'lish zarurati ham kuchayib boradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan davlatlarda moliyani boshqarish hamda ularning natijalarini ta'minlash natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat byudjeti ijrosining yangi mexanizmi amaliyotga kiritish bugungi kunda byudjet islohotlarining yuridik yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati byudjet mablag'laridan to'g'ri foydalanish bosh mezonga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimidagi o'tkazilayotgan tub islohotlar zahirida moliya tizimida davlat byudjeti ijrosini natijaviyligini ta'minlash hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat byudjeti ijrosining natijaviyligini ta'minlash maqsadida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini joriy etish ham, o'ylaymizki, shu kabi islohotlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda byudjet va soliq islohotlarining olib borilishi iqtisodiyotni liberallashtirish hamda islohotlarni jadallashtirishning zaruriy shartidir.

Hozirgi bosqichda byudjet islohotini davom ettirish davlat moliyasini boshqarishdagi keng ko'lamli o'zgarishlarning amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Byudjetni shakllantirishning asosi davlat moliyaviy siyosatining aniq belgilangan maqsadlari va ustuvorliklari bo'lishi, davlat byudjeti xarajatlari esa hokimiyat organlari faoliyati natijalari bilan bog'lanishi kerak. Davlat moliyasini boshqarishga yangi yondashuvlar aynan mana shundan iborat bo'lib, ular mazkur bosqichda byudjet islohotlarini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalish doirasida byudjetni o'rta muddatga rejalashtirishga o'tish va byudjetni

rejalashtirishning yangi usullarini – Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etish ko‘zda tutilgan.

Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish byudjet xarajatlarini optimallashtirishga, ularni davlat siyosatining ustuvorliklariga bo‘ysundirishga, iqtisodiyotning davlat sektori samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishning asosiy afzalliklari quyidagilar bo‘lib hisoblanadi:

–davlat aholiga jamiyat uchun manfaatli bo‘lgan ijtimoiy boyliklarni va xizmatlarni beradi;

–qaror topgan tuzilma va mablag‘larning sarflanishi yo‘nalishlarini baholash hamda “o‘z-o‘zidan” amalga oshiriladigan samarasiz xarajatlarni moliyalashtirish amaliyotidan voz kechish imkonini beradi;

– davlat mablag‘larining sarflanishi yo‘nalishlarini asoslash nafaqat joriy ehtiyojlardan, balki ilgari surilgan istiqbolli vazifalardan kelib chiqib amalga oshiriladi;

–vazirliklarning natijalar uchun javobgarligi kuchayadi, bu esa nafaqat muayyan xizmatlarning ko‘rsatilishini, balki sifat ko‘rsatkichlariga erishishni ham taqozo etadi;


–davlat xarajatlari sohasidagi qarorlarning asoslanganligi darajasi oshadi va turli darajadagi moliyalashtirishning davlat xarajatlari samaradorligiga ta‘sirini baholash imkonini beradigan axborot bazasi yaratiladi.

Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish jamiyat uchun hukumat o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘ygani va ularga qanday erishayotganini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Barchamizga ma‘lumki, bugungi globallashtirish va inregrallashtirish jarayonida jahonning iqtisodiy qiyofasi o‘zgacha tasvirga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birgalikda, moliyaviy sohada yuzaga kelgan nomutanosibliklar iqtisodiyotning real sektoriga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Albatta, integratsiya jarayonining bir bo‘lagi bo‘lgan O‘zbekiston ham jahonda bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘z javobini berishi lozim.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ham o‘rta muddatli moliyaviy yilga mo‘ljallangan natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini keng joriy etishning reja istiqbollari ishlab chiqilmoqda. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, O‘zbekistonda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini joriy etish bugungi sharoitda muhim islohot sanaladi.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, har bir byudjet tizimi va ularning ko‘rsatkichlari natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimini to‘ldiradi. Buning sababi, O‘zbekistonda bugungi kunda byudjet parametrlarini ishlab chiqishda normativ asoslarda va o‘tgan yilgi byudjet parametrlaridan foydalanilgan holda ish ko‘riladi. Aynan natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimini joriy qilinishining dastlabki bosqichlarida ana shu tuzilmani qo‘llash maqsadga muvofiqdir.



2-rasm. Byudjet tizimlari va ularning ko‘rsatkichlari

Bugungi kunda mamlakatimizda bir necha milliy dasturlar va hukumat qarorlari mavjud bo‘lib, ularni natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotiga muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘zlangan uzoq muddatli strategik rejalar hamda hukumat qarorlarini to‘laqonlik bilan amalga oshirish kelajakning ustunlaridan hisoblanadi. Quyidagi chizmada milliy dasturlarni natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotiga moslashtirishning na‘munaviy shakli keltirilgan.

Byudjet jarayonini byudjet islohotlarining markaziy masalalaridan biri bo‘lib, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyoti doirasida muhokama qilsak, u holda bevosita quyidagi chizmada ifoda etilgan o‘zaro aloqadagi tuzilmaga ega bo‘lamiz:

- byudjet loyihasini tuzish (1-4);
- byudjetni ko‘rib chiqish (3-5);
- byudjetni ijro etish (4-6);
- byudjetning ijrosi to‘g‘risidagi hisobot (6-7).

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishda, byudjet barqarorligini ta‘minlashning eng ustuvor vazifalaridan biri soliq siyosatini tabaqalashtirilgan tarzda takomillashtirib borish maqsadiga muvofiqdir. Bu borada makroiqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish orqali optimal variantini qo‘llash, soliqlarning tadbirkorlar va keng aholi qatlamlari daromadlarini oshirishini rag‘batlantiruvchi omil sifatida bosqichma-bosqich soddalashtirib borish taqozo etiladi. Davlatning moliyaviy siyosati samaradorligini oshirish va davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotiga o‘tish soliqli daromadlar istiqbolini belgilashning zarurligini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Raxmonov, J. G. (2024). Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish: xorij tajribasi. *Science and Education*, 5(3), 592–598.
2. Azizova I.A. Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: “infoCOM.UZ”, 150 b.
3. Афанасьев М. Бюджетирование, ориентированное на результат (новые тенденции) // Вопросы экономики, № 9, 2004, с. 130-139.
4. Чигирев В.Ю. Бюджетирование, ориентированное на результат, и его реализация в органах федерального казначейства. Автореферат диссертации. – Саратов, 2007
5. ugli Mehmonaliev, A. G., & Khidirov, N. G. (2022). Social-economic significance, essence and theoretical-methodical basis of medium-term budget practice. *Science and Education*, 3(12), 991-996.
6. Xidirov, N. G. I., To, I. A. O. G. L., Kenjayeva, N. B. Q., & Ruziqulova, D. U. Q. (2023). Davlat byudjeti daromadlar tarkibida to‘g‘ri soliqlarni ulushini oshirish masalalari. *Science and Education*, 4(12), 679-685.